

O'rmon. Sahnaning to'risi daraxtzor, o'rtada kattakon to'nka, o'ng chetda to'p bo'lib o'sgan maymanchak. Uyoq-buyoqqa alanglaganicha Quyoxon kirib keladi, atrofga tovush qiladi.

Quyoxon:

- Quyonjo-o-n! Qayerdasan, ukaginam? Tag'in. Adashib qolmagin, mittivoy.

Bu yer gulshan bog' emas,

Bu yer tikanzor o'rmon.

Bunda mehr qalbaki,

Qonuniyam g'irt yolg'on,

Ukajonim, adashma!

Adashganga yaxshilar

Ko'maklashar har mahal.

Bizda darrov yem bo'lar

Birov chalg'ib qolsa sal,

Ukajonim, adashma!

Xavfli emas Qo'rsichqon,

Ko'zi ochiq ko'rdan qo'rq.

Barcha ko'rlar nomidan

Ish ko'ruvchi zo'rdan qo'rq,

Ukajonim, adashma!

"Erk va Adolat" so'zi

Bezar bizning bayroqni.

Asli bayroq kiydirib

Niqoblashgan tayoqni,

Ukajonim, adashma!

Ovoz:

- Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!

Quyoxon cho'chib tovush kelgan tomonga qaraydi. Maymanchak ortidan yum-yumaloq maxluq ko'tarila boshlaydi. Uning ko'zlari kosaday, beso'naqay og'zi irshaygan, dumi shabadada lattaga o'xshab hilpirab turibdi. Quyoxon qo'rqib tisariladi.

Quyoxon:

- Voy-dod! Bu nima balo? Yordam beringla-a-r! (Shilq etib behol o'tirib qoladi).

Quyoxon:

(Maymanchai ortidan irshayib bo'y ko'rsatadi). Ve-xa-xa. Hushingdan ketib qolmadingmi, opa?

Quyoxon:

(Sal o'ziga kelib). Qoch, ukajon! Tezroq qochsang-chi! Anavi ajina yeb qo'ymasin seni. Qoch deyapman!

Quyoxon:

Dadil eding, tiling burro, qaqajon,

Endi qalt-qalt titrayapsan, opajon.

Xudoyim zap bergan ekan yurakdan,

Ajinani farqlolmasang pufakdan.

Quyoxon:

Nima deding,

Qanaqa pufak?

Quyoxon:

Ko'ryapsan-ku,

Shunaqa pufak.

Quyoxon:

Axir pufak nima o'zi,

Muncha katta og'zi, ko'zi?

Quyoxon pufakning dumini o'siq shoxga dikkaytib ilib, opasining yoniga o'tadi.

Quyoxon:

Bugun bizning o'rmonga

Tutun purkab, dirillab,

Keldi temir arava

Och hayvondek zirillab.

Tushdi undan to'rt odam:

Ota, ona, qiz-o'g'li.

Savat ushlab, butazor -
Tomon kelishdi to'g'ri.
Ota terdi maymanchak,
Ona terdi maymanchak.
Qizi esa o'ynadi
Shoxni qilib hayinchak.
Yolg'iz qolib o'g'ilcha
Xo'p zerikdi, ufladi.
Cho'ntagidan oxiri
Ichak olib, pufladi.
Puflamasdan ilgari
Ichakcha edi tildek.
Ishib-ishib, shu desang,
Bo'ldi qorindor fildek.
Quyoxon:

Demak jinlar makrini
Ko'zing bilan ko'ribsan.
To'rt ajina uchrasa,
Odamlar deb yuribsan.
Odam hatto ajdarni
Yeb tashlar, "go'sht" desang bas,
Ammo o'zi fil tugul,
It yasashga qodirmas.
Quyongjon:

Fil yasadi demadim,
Fildek narsa yasadi.
Keyin loydan gul chizib,
Go'yo uni bezadi,
Maqtangan vaqt qizchaga
Ko'rib qo'y deb pufakni,
Qizcha dedi ermaklab:
"E, yuqot bu g'umbakni!"
So'ngra cho'pak otgandi,
Naq mo'ljalga sanchildi.
"Paq!" etdi-yu, pufak yo'q,
Bir hamlada yanchildi.
Quyoxon (Ukasini quchib):

Yo'q, seni jin chalibdi,
Aljirama, ukajon.
Filni bitta cho'p bilan
Yanchib bo'lmas hech qachon.
Quyongjon:

Eshitmasin Bo'rilar,
Opa, sekinroq baqir.
Fildek narsa deypman,
Fil deganim yo'q axir.
Quyoxon:

Uka, gaping poyma-poy,
Yorildi deysan pufak,
Unda bu-chi? Bu nima?
Meni qilma ko'p tentak.
Quyongjon:

Bu boshqasi, tushun-da,
Yorilgani - u bo'lak.
Qizcha ketgach, bolakay -
Oldi yana bir ichak.

Uniyam zo'r ishirib,
Dumiga ip bog'ladi.
Katta og'iz, ko'z chizib,
O'z vaqtini chog'ladi.
Kuldi:

- Noming bugundan
Qorinbotir bo'lsin, deb.
O'rmondagi hayvonlar
Sendan qo'rqib o'lsin, deb.
Keyin fikri chalg'idi,
Quvlab ketdi kapalak...
Shundoq qilib, opajon,
Menga qoldi bu pufak.
Tashqaridan begona ovozlari eshitiladi.
Birinchi ovoz:
Ir-r-r!
Ikkinchi ovoz:
Bo'-o'-o'-!
Quyoxon:
(Uzoqqa bo'ylanib)

Uka, tezroq qochaylik,
Kelar poshshomiz Sherxon.
Tayoq ushlab yonida
Vaziri Ayiq polvon.

Quyoxon (Alamnok):

O'zi qanday hayvonmiz
Na uyon, na buyonlik.
Rostin aytsam, opajon,
Jonga tegdi quyonlik.
Doim qo'rqish, berkinish,
Taqdirdan fol ochamiz.
Sherxon bitta, biz mingta,
Qachongacha qochamiz?
(Pufakka qarab qo'yib, mug'ambirona ko'z suzadi).

Mana, Qorinbotir bor,
Kel, yurakni toblaylik.
Biron marta bizlar ham
Shu zo'rlarni boplaylik.
Quyoxon:

Hoy, aqldai ozdingmi?
Sherxon qayda, biz qayda!
Quyoxon:

Ko'pincha kuch-qudratmas,
Aqldan kelar foyda.
(Jo'shqin kayfiyatda opasining qulog'iga nimalarnidir shivirlyaydi).
Quyoxon:

Hazilingni qo'ysang-chi,
Nima, jondan to'ydingmi?
Quyoxon:

Hali shunday rejani
Sen hazilga yo'ydingmi?

Qo'rqma, opa, men borman,
Aytganimni qilsang bas.
Makkor bo'lsak bo'pmiz-da
Vaxshilikka qasdma-qasd.
Quyoxon:

Ehtiyot shart, ukajon,
Kel, betingdan bir yalay.
Baribir sal qo'rqayman,
Ular yirtqich harqalay.
(Quchoqlashib o'pishadilar).
Quyonjon:

Fil yasama pashshadan,
Titrayverma, endi bor.
Qancha dadil kurashsang,
Omad shuncha bo'lar yor.
Quyoxon ketadi. Quyonjon maymanchak ortiga yashirinadi. Narigi yoqdan Sher bilan Ayiq kirib keladi. Sher hansirab to'nkaga o'tiradi. Ayiq tayoqni changallab yonida qo'qqayadi.

Sher:
- Uf-f, sillam qurib ketdi. Yordam beringla-a-r, degan tovush shu tomondan keluvdimi o'zi?

Ayiq:
- Xuddi shu atrofdan eshitiluvdi. Menimcha kiyikning bolasi bo'lsa kerak.
Sher:

Qoldik qanday zamonga,
Shoh bo'lsamu men buyuk,
Tashna qilsa go'shtiga
Hatto molfe'l bir Kiyik.
Ayiq:

Surbetlikni qarang-a,
O'zi yordam so'radi.
Siz yordamga kelganda,
Nega juftak uradi?
Sher:

Vazir bo'lmay o'l, Ayiq,
Qornim ochdi ja yomon.
Kirpi-mirpi tutsang-chi,
Loaqal ilon-pilon.
Ayiq:

Qiziqsiz-a, xo'jayin,
Ilonni topay qaydan?
Qochar hatto suvarak
Siz bilan biz bor joydan.
Yugurib Quyoxon o'ta boshlaydi. Ayiq uni chalib yiqitib, tayog'i bilan kuragidan ezadi.

Quyoxon:
(Yotgan joyidan Sherga boqib ingraydi). Assalomu alaykum, shohim.

Sher:
(Yalanib so'lak yutadi). Vualaykum assalom.
Ayiq:

Baxtlisiz-da, xo'jayin,
So'rasangiz ilonni,
Tangrim marhamat qilib
Yuboribdi quyonni.
Sher:

Fuqaroni ranjitma,
Avval arzin eshitay.
Gapida tuz bo'lmasa,
Unda shartta tinchitay.
Ayiқ:

Bularda tuz, burd bormi,
Oldingizda muloyim.
Fikrlashsa o'zaro,
Tanqid-tanqid har doim.
Sher:

Hoy, vazir, ko'p berilmagin sarqitga,
Bizda hech kim qarshi emas tanqidga.
Toki men bor - bordir erk va adolat,
Senlar bois yog'ar taxtga malomat.
U Bo'rsiqmi, Qalamushmi, Chigirtka,
Tanqid qilsin, xatomni aytsin tikka.
Haq bo'lsa u, tan beramiz joyida,
Haq bo'lmasa, uni yeyish - qoida.
Ayiқ (Tirjayib Quyoxonni bo'shatadi):

Bo'pti, Quyoxon, gapiraver arzingni,
Keyin to'lab qo'yasan jon qarzingni.
Quyoxon:

Sovuq xabar aytmoqchiman, o shohim!.
Og'ir botsa kechirgaysiz gunohim.
Sher:

Sovuq xabar?
Gapni cho'zmay tezroq ayt!
Gunohingni padariga ming la'nat!
Quyoxon:

Bizning to'kin va obod,
Dunyodagi eng ozod
Dorulomon o'rmonda,
Maymanchakzor tomonda
Yovuz maxluq yurganmish,
Qoplonni yeb ko'rganmish.
So'ng yutib to'rt yo'lbarsni,
O'n jayron, qirq qo'tosni,
Beryotganmish tishga zeb,
Endi shohni yeyman deb.
Sher (Sal bezovtalanib):

Ehtiyotdan ayt bizga
O'sha yovning ismini...
Ayiқ:

Shohim uning boshin yer,
Men orqaroq qismini.
Quyoxon:

Baxtimizga, xoqonim,
Bo'ling g'olib va omon.
Yovga hushyor boqsangiz,
Chamam, ko'rmaysiz ziyon.

O'sha ablah hayvonxo'r
Ko'p baloga qodirmish.
Nasli, jinsi notayin,
Ismi Qorinbotirmish.
Sher (Qo'zi g'ildirab):

Bay-bay-bay-bay!
Namuncha -
Oti xunuk o'zidan?!

Ayiq (O'zicha):

Qo'rqinch hiydi kelyapti
Xo'jayinning so'zidan.
Shu mahal Quyjonjon maymanchak ortidan pufakni qimirlatib na'ra tortadi.

Quyjonjon:

- Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!

Olako'z pufakni ko'rib, Sher seskanib o'rnidan turadi. Ayiq go'layib orqaga chekinadi. Quyjonxon jo'rttaga Sherning pinjiga suquladi.

Quyjonxon:

Qo'rqib ketyapman, shohim. O'sha Qorinbotir shu bo'lmasin!

Sher:

(Tili g'o'ldirab). Qo'-qo'.., qo'rqma, fuqaro. O'r... o'r... o'rmonda hukumat bor, qonun bor.

Ayiq:

(Sarosimalanib). Tushlik vaqti bo'ppoldi, xo'jayin. Menga boshqa xizmat yo'qmi? (Ketmoqchi bo'ladi).

Sher:

Qimirlama,
He, o'pka!
O'z haddingda tur, vazir!
Senga tekin tushlikni
Ko'rsataman men hozir.
Qani, mundoq beri kel,
Oldinga o't bir qadam.
Ayiq:

Shoh oldini to'sma deb
Nasihat qilgan dadam.
Sher:

E, dadangni qarayuu,
U qo'rqoqki - sen qo'rqoq.
Botir bo'l deb pand aytsa
O'larkanmi u maymoq?
Borib Ayiqning tayog'ini tortib oladi, ayamasdan savalay ketadi.
Ayiq:

Men-ku qo'rqoq emasman,
Faqat o'ylayman tiniq.
Hozircha bu dushmanning
Zoti tugal noaniq.
Eng yomoni - biz uning
Kuchi qancha - bilmaymiz.
Vaqtinchaga chekinsak,
Aslo xato qilmaymiz.
Quyjonxon:

Bilaylik ne ekanin...
Qorinbotir degani -
Shu bo'p chiqsa mabodo,
Unda ishimiz rasvo:

Qochsak, quvib tutadi,
Hamla qilsak, yutadi.
Ayiq:

Taxminan o'ylab ko'rsak,
Tegmasmikan jim tursak?
Quyoxon:

Ajabmaski hozir qorni to'q bo'lsa,
Shundan kayfi chog'u ko'zi lo'q bo'lsa.
Balki bizni soldi ochiq qamoqqa,
Kechqurunroq qorni ochsa yemoqqa.
Sher (Ayiqqa tayog'ini berib, yana to'nkaga o'tiradi):

Balki o'sha Qorinbotir bu emas...
Kepqolsaydi biron jonzot yaramas,
Gap chalg'itib, surishtirib ko'rardik,
Aniq javob berolmasa, urardik.
Quyoxon:

Aqlingizga ofarin,
Gapingiz to'ppa-to'g'ri.
Ayiq:

Avliyosiz, xo'jayin,
Ana, kelyapti Bo'ri.
Bo'ri xirgoyi qilganicha xush kayfiyatda kirib kelib, chetdagi daraxtni ilhomlanib quchoqlaydi, kuylashda davom etadi.
Bo'ri:

Jon Quyon, to'lpoq Quyon,
Hammani hayron qilasan.
Nega duch kelsak qochib,
Akangni sarson qilasan?
Zoti past Tulki yesa,
Oxiri armon qilasan.
Bo'rini och qoldirib,
Nomini hayvon qilasan.
Ayiq:

Ho', hayvon!
Bo'ri (Shoshib qaraydi):

Labbay, polvon.
Ayiq:

Anqayma, oyoqni o'p.
Bo'ri:

Xo'p dedik-ku, xo'p.
Tez kelib Ayiqning oyog'iga tashlanadi.
Ayiq(Bo'rini tepib):

Buyoqda shoh turibdi,
Atrofga bir qara-da.
Bo'ri:

Unda bu kir oyog'ing
Nima qilar orada?
(Endi borib Sherning oyog'iga yiqiladi)

Manavini oyoq desa bo'ladi,
Pok-haromni farqlashda ko'p hushyorman.
Bunday toza, bunday tansiq oyoqni
O'pishgamas, yalashgayam tayyorman.
(Oyoqni yalab bosh ko'targach, Quyonxonni ko'radi)

O, Quyonxon, azizim!
Omonmisan, bormisan?
Yoki mening mehrimsiz
Changalzorda xormisan?
Quyonxon (Kesatib):

O, qayoqda yuruvding?
Ko'zim uchib turuvdi.
Bo'ri (Fotihaga qo'l ochadi):

Omin! Uzingdan ko'pay!
Kel, ketingga bir tepay.
Sher:

Bas qil! Hozir shartmas tepishmoq!
Eshit, aytay senga topishmoq.
Bo'ri:

Hukmdorim, qulog'im sizda,
Yechvoramiz jumboqni tezda.
Sher:

Oyog'iyam yo'q,
Qulog'iyam yo'q.
Qorni qanor,
Og'zi ombor.
Ko'zi katta,
Dumi latta.
Ayiq:

Topsang - hay-hay!
Topmasang - vay-vay!
Bo'ri:
Topishmoqni topdim aniq.
Sher:
Xo'sh, nima u?
Bo'ri:
Zog'orabaliq!
Sher:
(Ayiqqa)

Mukofot ber sozlab,
Javobiga moslab.
Ayiq Bo'rini dodlatib tayoqda savalaydi.
Ayiq:

Ana, senga mukofot,
Mana, senga mukofot.

Ana, zog'orabaliq,
Mana, zog'orabaliq.
Sher:

Yetar, polvon! Bo'ladi!
Yo'qsa harom o'ladi.
Quyjon (Maymanchak ortidan pufakni qimirlatib):
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Bo'ri(Bir sapchib tushadi):

Vah! Qanaqa mahluq bu?
Muncha semiz, yog'liq bu?
(Tisarilib, Ayiqqa qapishadi)
Ayiq:

E, nari tur, yopishqoq!
Shudir o'sha topishmoq.
Sher:

Xo'sh, shunaqa maxluqni
Ko'rganmiding ilgari?
Bo'ri:

Bu - yo Hindistonniki,
Yo bo'lmasa Bulg'ori.
Quyjonxon:

Qorinbotir bo'lsa-chi?
Eshitganing bormi hech?
Bo'ri (Birdan Sherga yalinib):

Meni qo'shmang bu ishga,
Duo qilay erta-kech...
Ezmalanib men ahmoq
O'tiribman buyoqda.
Qattiq betob yotibdi
Oyim sho'rlik uyoqda.
(Ketmoqchi bo'ladi)
Sher:
Qimirlama joyingdan!
Ayiq:
He, o'rgildim oyingdan.
Quyjonxon:

Bo'rivoy, xullas gap shu:
Qorinbotir bo'lsa bu,
Qochsak, quvib tutadi,
Hamla qilsak, yutadi.
Bo'ri:

Turish uchun bunda jim,
Qerak bo'lar mingta shim. -
Quyjon (Yana pufakni qimirlatib tovush qilady):
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Bo'ri (Battar tipirchilab):

Balki sizlar mahkumsiz
Bunga qurbon bo'lishga.

Ammo yo'qdir haqqingiz
Meniyam yem qilishga!
Ayiқ:

Jim bo'l, badbaxt,
Bosvol jahlingni.
Quyoxon:

Chora o'yla,
Ishlat aqlingni.
Bo'ri bezovta alanglaydi, tuyqus diqqati jamlanadi.
Bo'ri:

Aqlli zot kelyapti, ana,
Bitta qurbon ko'paydi yana.
Sirtlon:

Ichdim Suvsar qonini,
Vijdonim qani?
Oldim Kaptar jonini,
Vijdonim qani?
Bo'g'ib yedim Bug'uni,
Vijdonim qani?
Bo'g'ish, bo'g'ish har kuni!
Vijdonim qani?
(Qo'ynidan ro'molcha olib, ko'zyoshini artadi).
Ayiқ:

Ijodingni yig'ishtir, ho' vijdonsiz,
Buyoqda shoh o'tiribdi imkonsiz.
Sirtlon shoshmasdan o'rnidan turib, sipolik bilan Sherga yaqin keladi, xiyol ta'zim qiladi.
Sher:
Kimsan o'zing? Mushukmisan?
Sirtlon:
(Sokin)
Men Sirtlonman, xoqonim.
Sher:
Buncha tundsang? Kasbing nima?
Sirtlon:
G'azalxonman, xoqonim.
Sher:
Shoir bo'lsang, kallang zo'rdir?
Aytayinmi topishmoq?
Sirtlon:
Aytavering...
Shohning kasbi -
Shoirlarga yopishmoq.
Sher:

Oyog'iyam yo'q,
Qulog'iyam yo'q.
Qorni qanor,
Og'zi ombor.
Ko'zi katta,
Dumi latta.
Ayiқ:

Topsang - hay-hay!
Topmasang - vay-vay!
Sirtlon:

Kirib kelsa oyoqsiz,
Arzga bo'lsa quloqsiz,
Meshga o'xshasa qorni,
Og'zi eslatsa g'orni,
Ola ko'rinsa ko'zi,
Ortida - latta isi,
Bizga oydek ayon bu -
Shoh chiqargan farmon bu.
Quyoxon:

Gapi tagdor, aqli zo'r,
Afsus, o'zi sal qonxo'r.
Sher:
(Ayiqqa)
Eshitdingmi javobin?
Ayiq:
Tortamiz-da tanobin!
(Sirtlonga)

Shoir uka, qani, yot,
Bir yog'diray mukofot.
Sirtlon yotadi. Har gal beliga tayoq tushgandi gohi. Sal ingraydi, gohi. Chidam bilan lab tishlaydi.
Sher:
Bas qil, polvon! Shoirning -
Tanasi sal bo'lar xom.
Ayiq:

Lekin ba'zi shoirga
Qaltak ham berar ilhom.
Sirtlon (Turib, Sher va Ayiqqa minnatdor boqadi):

Rahmat sizga, janoblar,
Sal tinchlandi vijdonim.
Ko'p xo'rladim yot jonni,
Bir xo'rlandi o'z jonim.
Johil bo'lsa xoqoning,
Zamonang - buzuq maktab,
Vahshiy qilar shoirni
Tirikchilik degan gap.
Ayiq:

Taxtimizga dushman bu,
So'zi o'xshar qotilga.
Shuni tashlyb qochsak-chi
Anov Qorinbotirga?
Sher:

Qorinbotir shumikan,
Oldii aniq bilaylik.
Qeyin, shoir-poirmi,
Bir qurbonlik qilaylik.
Quyongjon (Odatdagidek pufakni panadan qimirlatib):
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Sirtlon (Qattiq taajjublanib):

Yo alhazar! Bu nima?
Ajinami yo hayvon?
Bo'ri:

Yaqin borsang, bir umr -
Tinch qo'yar seni vijdon.
Sher:

Daydib, shuncha yurt kezib,
Qo'p ilmni qilib yod,
Sen ham bunday maxluqni
Ko'rmagansan hech nahot?
Quyoxon:

Buning tili bormaydi
Tanishim kam demoqqa.
Faqat ba'zi do'stlarin
Majbur bo'lgan yemoqqa.
Sirtlon:

Yetar! Jondan to'yib ketdim!
Haqiqatan og'zim qon!
(Birdan hazin tortib)
Endi bildim, bu qon yuqin
Yuvib bo'lmas hech qachon.
Qorinbotir och bo'lsa gar,
Ora kiray joniga.
Ruhim uzr so'rab borsin
Qurbonlarin yoniga.
Sher:

Shoshma, shoir!
O'z joningdan
Sal keyinroq qocharsan.
Yem bo'p balki bu maxluqning
Ishtahasin ocharsan.
Ishtahasi ochildimi -
Boshqaniyam qo'yimas sog'.
Bo'ri:

Chetda she'r-per to'qib turgin,
Kengashaylik biz tinchroq.
Qayerdandir hakkaning shaqillashi eshitaladi. Chetdagi daraxtning tepasiga tikilganicha Tulki kirib keladi.
Tulki (Yuqoriga ovoz qilib):

Salom, suluv Hakkaxon,
Zap olayib ketibsana.
Milliy lapar aytishda
Qarqunoqdan o'tibsana.
Kecha qirga boruvdim,
Uchrab qoldim ammaningni.
U desang bir vazifa
Yuklab qo'ydi zimmamga.
Qilib senga vasiyat,
Kasalim deya og'ir,
Qayga nelar ko'mganin
Sanab berdi birma-bir.
Kel, pastga tush aylanay,
Atrofdan ko'p begona.
Aytay ammang gaplarin
Qulog'ingga pinhona.
(Yuqoridan Hakkaning qanot qoqqani eshitaladi).

Hoy, qayoqqa qochyapsan?
G'ashlik solma dilimga...

(So'ng ortidan musht do'layib).

Vah, yaramas!
Baribir B"
Tushasan-ku qo'limga!
Ayiq:

Hu, hakkaxo'r! Ho', ayyor!
Beri kel, lo'livachcha.
Tulki (Sherni ko'rgach, boshqalarga parvo ham qilmay, uning oldiga kelib cho'kkalaydi):

Voy, ko'rar kun bor ekan,
Bardammilar, Sher pochcha?
Ayiq (Kelib Tulkini turtadi):

Pochcha tanla o'ylab zotingni,
To'xtat yolg'on xushomadingni.
Bo'ri:

He, boshingda mingta bit yurgur!
Quyoxon:

Tilyog'lama! Hu, turqing qurg'ur!
Sirtlon:

Ha, firibgar, qayda yuruvding,
Qani mening yashil daftarim?
Tulki:

Tuhmat qilma, daftar meniki,
She'rlariyam - mening gaplarim.
Sirtlon (Atrofdagilarga):

Sevgilinga yozgan pokiza -
She'rlarimni yoyib poxolga,
Tunlar o'qib berar emish bu
Bir jo'jaxo'r o'g'ri Shoqolga.
(Tulkiga g'ijinib)

Hozir seni bo'g'aman, makkor,
Tinchimayman ichmasam qoning.
Sher:

Hovliqmay tur! Buniyam yesang,
Qiynaladi battar vijdoning.
Quyoxon:

Qo'yib bering, hukmdor,
Yesin bu yer yutgurni.
Yorug' dunyo ko'rganmas
Bunday nafsi o'tkirmi.
Bir kun qari qo'shnimga
Sullohlanib javradi.
Kino kepti botqoqqa,
Boraylik deb avradi.
Botqoqzorning kinosi

Chiqib qoldi bepoyon.
Mana, bir yil o'tdiki,
Qaytgani yo'q go'l Quyon.
Bo'ri:

Shapko'r bobom bor edi,
Yurardi ko'p adashib.
Shu Tulkidan ko'zdori
Oldi qo'yga almashib.
Suyungandim o'shanda
Deb "Bobomga zo'r bo'ldi".
Bobom dori qo'ydiyu,
Ko'zi tugal ko'r bo'ldi.
Ayi:

Rostin aytsam, xo'jayin,
Kashmiridir bu Tulki.
Biz - xudoga qarashli,
U-chi - shaytonning mulki.
Boy bo'lasiz degandi
Fol ochib bu aldoqchi,
Ertasiga uyimni
Urrib ketdi qaroqchi.
Tulki:

Mana, bo'lding-ku vazir,
Bu boylik emasmi, sur?
Ayi:

Zo'r folchi bo'lsang, bildir,
Boshqa bir misol keltir,
Tulki:

Yulduz sanab bilganman
Sirtlon qushni bo'g'ishin.
Uch kun oldin aytganman
Ukki tuxum tug'ishin.
Bo'ri:

Ukki tillo tug'maydi.
Bular - ma'lum narsalar.
Tulki:

To'ng'izgayam zo'r ta'bir
Aytgan edim, masalan.
Sher:

Xo'sh, qaiqa zo'r ta'bir?
Qisqaroq qilib gapir.
Tulki:

Shohim, sizning o'lkangiz
Botqoqlikdan buyog'i.
Narigi yoq - odamlar
Qurgan Sho'ro qishlog'i.
Yashar o'sha qishloqda
To'ng'izvoyning xolasi.
Unga qondosh umuman
Hamma cho'chqa bolasi.

Borma dedim mehmonga
Tushmay desang turmaga.
Quloq solmay boruvdi,
Qamashibdi fermaga.
Sher:

Loy-balchiqqa belanib
Yurar edi qo'lansa.
Nahot hayvon hisoblab,
U iflosni qamasha?
Tulki:

Shohim, bizning o'rmonda
Majlis kam-u, go'sht serob.
Sho'rolarda, menimcha,
Bu masala sal xarob.
Bo'ri:

Shu bois ov qilishar,
Har birida to'rt miltiq.
Sirtlon:

Ovda yurmay, mol boqsa,
Ko'char edi ish silliq.
Quyoxon:

Ular yomon o'rgangan
Tayyorini ovlashga,
Sabzi ekib bersang ham,
Erinishar kavlashga.
Sher:

Nahot odam jonivor
Bo'lsa mundoq betayin?
Ayi (Pufakka ishora qilib):

Orqada yov turibdi,
Ko'p chalg'imang, xo'jayin.
Sher (Pufakka sarosimali boqib qo'yib Tulkiga yuzlanadi):

Ha, xo'p, demak folbinsan?
Nomdormisan?
Tulki:
Juda zo'r!
Sher:

Agar chindan zo'r bo'lsang,
Topishmoq bor, topib ko'r:
Oyog'iyam yo'q,
Qulog'iyam yo'q.
Qorni qanor,
Og'zi ombor.
Ko'zi katta,
Dumi latta.
Ayiq:

Topsang - hay-hay!
Topmasang - vay-vay!

Tulki:

Bu topishmoq qiyinmas,
Nimaligi muhimmas:
Jonli bo'lsa - qulingiz,
Jonsiz bo'lsa - mulkingiz.
Ayiq:

Go'dak emas janob Sher,
Gapga to'g'ri javob ber!
Tulki (Bir zum osmonga sirli tikilib turgach):

Ana!
Ana, Kal Yulduz
Birdan keltirdi darak.
Sehrli topishmoqqa
Javob tayyor...
U - varrak!
Ayiq:

Eshak ham biladiki,
Qorindor bo'lmas varrak-
Sirtlon:

Yulduzingdan o'rgildim,
Bu kallami yo xamak?
Bo'ri:

Hozir bitta tushirsam,
Boshing bo'ladi parrak.
Quyoxon:

Jinnilardek valdirar,
Tili xuddi tartarak.
Sher:

Tulkivoyga bir himmat qilib,
Sovg'a bering ko'pchilik bo'lib.
Ayiq (Tayoq bilan soladi):

Ana, senga varrak!
Mana, senga varrak!
Boshqalar ham tulkini tepkilay ketishadi.
Bo'ri:
He, sendaqangi tabibdan o'rgildim. Mana, senga ko'zdori!
Sirtlon:
Yashil daftarim qani? Qani daftarim deyapman?
Quyoxon:
Qari Quyonni yeyish mana bunaqa bo'ladi!
Sher:
Bo'ldi! Sovg'a ko'p ketdi,
Nog'orachalish bo'pketdi.
Hayvonlar do'pposlashdan to'xtashadi. Faqat Bo'ri eshitmaganga olib uraveradi.
Ayiq:
To'xtasant-chi, Bo'rijon,
Tepadan keldi farmon.
Bo'ri nihoyat tiyilib, Tulkiga g'ijinib boqadi, jazavalanib yana bir tepadi.
Bo'ri:
Bunisi poshshomiz uchun!

Tulki (Yig'lamsirab):

Ojizlarga ko'rsatar
Yomonlar o'z kuchini.
Olvolaqol, vey, Bo'ri,
Enangniyam o'chini.
Quyjon (Maymanchak ortidan baqiradi):
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Pufakni ko'rib, Tulkining ensasi qotadi.
Tulki:
Voy-dod! Voy, buvijon! Bu nima?
Quyjonxon:

Bilmaysanmi, o'rmonda
Qorinbotir yurganmish.
Yo'lbarsniyu qoplonni
Xappa-xappa urganmish.
Shohim senga bekorga
Aytgani yo'q topishmoq.
Qorinbotir shu bo'lsa,
Unda juda ish chatoq.
Tulki:

Ko'zi buncha chaqchaygan,
Og'zi osmondan katta..
Bunday chog'da uy-uyga
Ketgan ma'qul albatta.
Bo'ri:

Qochsak, quvib tutishi mumkin,
Hamla qiyasak, yutishi mumkin.
Ayiq:

Qani, Tulki, unga yaqin bor,
Kimni oldin yerkin - fol ochvor.
Tulki:

Bu mahluqda til bormi o'zi? .
Eshitaylik biron-bir so'zin.
Sirtlon:

Ko'ramiz-da seni yevorsa,
Ajabmaski "Rahmat!" "ВЂ" devorsa.
Quyjon (Panadan pufakni qimirlatib):

Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Meni zimdan ermaklab
Haddingizdan oshmanglar.
Hozir qornim to'qroqdir,
Ochgunicha shoshmanglar:
Vaqa-a-a!
Hayvonlar talvasaga tushib qolishadi.
Ayiq (Pufakka qo'l qovushtshrib):

Ulug' zotsiz, bilamiz,
Nega ermak qilamiz?
Ermaklagan - hu Sirtlon,
Shuni yeng, tili yomon.
Quyjon:

Meni alday olmaysan,
Bitta Sirtlon juda kam.
Rohatlanib chaynayman
Hammangizni qilib jam.
Sher (Pufakka ta'zim bilan yaqinlashib):

Kechirgaysiz...
Hayronmiz
Taniyolmay o'zlarin.
Quyjonjon:

Mashhur Qorinbotirman!
Chiroylimi ko'zlarim?
Sher:

O, naqadar chiroyli!
Og'zingiz ham kelishgan...
Quyjonjon:

Unda taklif etaman
Ichkaridan ko'rishga.
Sher:

E, yo'q!
Rahmat...
Bizlarga
Tashqarisi ham tuzuk.
Quyjonjon:

Demak aytmoqchisanki,
Ichkarisi sal xunuk?
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Sher:

Urush-janjal bor joydan
Ketarmish qut-baraka.
Yaxshilikcha kelishsak
Bo'lmaydimi, jon aka?
Ayting, sizga kimlarning
Go'shti ko'proq yoqadi?
Og'zingizga o'zlari
Poda bo'lib oqadi.
Quyjonjon:

Yeb yuraman asosan
Poshsho degan zo'rlarni.
Qisman g'ajib turaman
Turli haromxo'rlarni.
Sher (Esankirab):

Bu olamda poshsho kam,
Haromxo'rlar besanoq.
Quyjonjon:

Bitta poshsho yuz mingta
Haromxo'rga teng biroq...
So'zlayapsan bezillab
Poshshomisan deyma-da.

Chiqib tursang oldimdan,
Iloj qancha, yeyman-da.
(Pufakni irg'ishlatib kimirlatadi).
Vaqa-a-a! Vaq-Vaqa-a-a!
Sher (Orqaga qochadi):.

Ochofatni ushlanglar,
Yo'qsa shohsiz qolasiz.
Hukumat xavf ostida,
Qanday ahmoq podasiz?!
(Ayiqqa)

E, satqai polvon ket,
Qaltiratma oyoqni.
Davlat senga bekorga
Bermagan bu tayoqni.
Sirtlon:

Arboblarga hukumat
Ulashsa ham tayoqlar,
Sadoqatu aqlni
Topib berar qayoqdan?
Quyjonjon:
Vaqa-a-a! Vaq-vaqa-a-a!
Quyjonxon:

Voy dod! Quridi sho'rim!
Zo'r eding-ku, hoy, Bo'ri!
Sher (Bo'riga):

Doim quyjon ovlaysan,
Yig'ishtir bu past ishni.
Ana, senga yirigi,
Buyuraman g'ajishni!
Bo'ri:

Tekin kiyib, yeb yurgan
Askarlarni chaqiring.
Men shunchaki fuqaro,
Harbiylarga baqiring.
Tulki (Atrofdagilarni qayrab):

Qorinbotir, menimcha,
Yemoqchilar poshshoni.
Biz na shoh, na haromxo'r,
Qochvorsak-chi osoni?
Quyjonjon:
Vaqa-a-a! Vaqa-vaqa-a-a! Birontang ham joyingdan qimirlama-a-a!
Hayvonlar dong qotib qolishadi.
Quyjonxon:
Voy-voy-voy! Hammamizni yeb qo'yadi shekilli?
Quyjonjon:
Qo'rqma-a, hozir qornim to'-o'-q. Senlarni ochqaganimda yeyma-a-n. Ko'p-ko'p yeyman, to'p-to'p yeyman! Vaq-vaqa-a-aq.
Quyjonxon:

E, xayriyat, jim bo'ldi yana,
Achchig'iga tegmay turaylik.
Qorni savil ochgunga qadar
Biron chora izlab ko'raylik.
Bu orada Quyjonjon pufakni qoldirib, maymanchak ortidan g'oyib bo'ladi.

Ayiq:

Kattalarning ko'nglin olmoq-chun
Bordir qirq ming uch yuz xil chora.
Sirtlon:

Shundan Ayiqbopi - itoat,
Bo'ribopi - olqish va pora.
Tulki:
O'zingbopin aytmading biroq.
Sirtlon:
Menbopimi?
Chidab yashamoq!
Quyjonjon (Boshqa yoqdan kirib):

Ochiq majlis bo'lyapti, chog'im...
Assalomu alaykum, shohim.
Quyjonxon:

Qoch, ukajon!
Biz yoqqa
Qorinbotir kepqoldi.
Dastidan bu o'rmonda
Na hayvon, na cho'p qoldi.
Quyjonjon:

Iye, opa, bejo-ku ko'zing,
Tushunmadim, qaytar-chi so'zing.
Bo'ri (Quyjonxon):

Cho'chitvorma dushmani bexos,
Baqirmasdan gapir, iltimos.
Quyjonxon (Ukasiga past tovushda):

Qulog'ingga chalinmaganmi
Qorinbotir degan ochofat?
Hammamizni yemoqchi bo'lib
Turar, ana, o'sha kasofat.
Quyjonjon (Pufakka parvosiz boqib):

Iye, yana qaydan keldi bu,
Ilgariyam to'qnashuvdik bir.
Quyjonxon:

O'shanda zap omon qolibsana,
Yaratganga ming qatla shukur.
Quyjonjon:

Qo'rqma, opa, bilasan o'zing,
Takvandodan ta'lim olganman.
Payti kelsa, bundan zo'rlarni
Quvib yurib rosa solganman.
Tevarakdagi hayvonlar birdan jonlanishadi.
Tulki (Pufakka olazarak boqib qo'yib):

Hoy, Quyjonjon, sekinroq gapir...
Bo'ri:

Gaping rostmi, baraka topkur?
Ayiқ:

Shuni yengsang, beraman asal.
Sirtlon:

Bag'ishlashim mumkin men g'azal.
Sher:

Ikkilanma, azamat jangchi,
Roziman, shu battolni yanchi!
Quyjonjon:

Qilmadi-ku menga yomonlik,
Men ham unga berdim omonlik.
Ketdik, opa, bizga tegmas u...
(Boshqalarga qarab)

Sizlarnikm... balki yemas u.
Bo'ri:
To'xta, uka!
Tulki:
Shoshma, azamat!
Sirtlon (Tulkiga):

Bas qil!
Hadeb yalinmoq uyat.
Ayiқ:

Shohim senga bermog'chi unvon...
Sher:

Lashkarboshim bo'lg'in, pahlavon!
Quyjonjon:

Be-e, askaring juda beta'sir.
Sher:

Ha, mayliga, qilamiz vazir.
Quyjonjon:

E, yo'q.
Opa, ketdik...
Sher:

To'xta! Qayt!
Unda o'zing tilagingni ayt.
Tulki (Shivirlab):

Tovuqxonona kalitin so'ra.
Bo'ri:

Zo'r qizi bor, kuyov bo'l, jo'ra.
Sirtlon:

Mahbuslarga ozodlik bersin,
Shoirlarni tergamay yursin.
Ayiq:

Tezroq ishlat kallani, shovvoz.
Sher:

Hech tortinma bo'lsa iltimos.
Quyjon:

Men iltimos qilmayman,
Bitta qat'iy talab bor.
Daryo bilan botqoqning
O'rtasida dala bor.
Bir tomoni chakalak,
Bir tomonda o'pqnlar.
Yashar unda quyonu
Boshqa mayda hayvonlar.
Shu bugundan yirtqichlar
O'rmonidan chiqmasin.
Bizning joyga hech qachon
Qaytib tumshuq tiqmasin.
Otameros yurtimiz
Bo'lsa erkin, mustaqil.
Yumdalashmay ochlikdan
Yashar edik shod, ahil.

Quyjonxon:

Mayda hayvonlarga ozodlik! Buloq va maysalar Quyjon va Bo'rsiqlarga! Yo'qolsin yirtqichlar hokimiyati!

Sher (Quyjonjonga):

Hal qilamiz buni tinch,
Ortiqcha bosh qotirma.
(Quyjonxonga pufakni ko'rsatib)

Faqat, tashqi dushmanga
Eshittirib baqirma.
Quyjonjon:

Shu gap - gapmi, hukmdor?
Quyjonxon:

Qasam ichsin! UvB"makkor!
Sher:

O'z so'zida turmasam,
Noyob dumim uzilsin,
Payxon bo'lsin chorbog'im,
Yangi qasrim buzilsin.
Quyjonjon:

Shohga bitta bog' nima,
Mingtasiga o't qo'yar.
Agar qasri buzilsa,
Uni yana el qurar.
Sher:

Jon haqqi ont ichaymi?
Unda bo'ynim eshilsin.
Ovchi otib, po'stinim
Qirq joyidan teshilsin.
Tulki:

Ishonaver qasamga,
Guvohmiz-ku mana biz.
Bo'ri:

Ha, shohimiz insofsiz,
Lekin emas g'alamis.
Quyjonjon:

Mayli, unga ishonib,
Dushman bilan olishay.
O'z yurtimning erki deb,
Ayov bilmay solishay.
Qani, yoting!
Sizlarni
Yov damiga tortmasin.
Ulgurji bu ovqatdan
Kuchi battar ortmasin.
Sher:

Buyuraman yotishni,
Chaqirtoshdek qotishni!
(Hamma yotadi).
Quyjonjon:

Men tomonga qaramang,
Chaqnamasin ko'zingiz.
Jang paytida chalg'isam,
Zarar ko'rmang o'zingiz.
Sher:

Buyuraman hammaga,
Dumlar pastga tugilsin.
Siyosiy jang vaqtida
Ochiq ko'zlar yumilsin.
Quyjonjon hayqirib pufakka tashlanadi, so'ng o'zi Qorinbotir bo'lib na'ra tortadi. O'zining yuziga o'zi tasur-tusur shapatilaydi, bir hayqirib, bir vaqillab yerda yumalaydi, kiyimlarini yirtadi. Har galgi baqiriqlarda hayvonlar yotgan joylarida cho'chib-cho'chib irg'ishlashadi. Quyjonjon goh o'z ovozi, goh Qorinbotir bo'lib baqira ketadi.
Quyjonjon:
- Mana senga, ochko'z! Mana senga, ishkamba!
- Vaqa-a! Vaq-vaqa-a-a! Yeyma-a-n!
- Birovning yurtiga bosib kelish mana bunaqa bo'ladi!
- Go'shingni titvorama-a-n! Hammangni yutvorama-a-n!
- Kelib-kelib sendan qo'rqamanmi? Takvando qanaqaligini bir ko'rib qo'y! Mana!
- Vaqa-a-a! Jag'imga tepma-a-a!
- Ha-a, qalaysan endi? Panjang'a ilinding-ku. Xirillama, qo'rqqoq.
- Jon Quyjonpolvon, meni bo'g'ma-a! Endi senga tegmayma-a-n, dushmanlaringni yeb yurazerama-a-n. Vaqa-a-a! Qo'yvo-o-r, iltimos qilama-a-n!
Yotganlar birin-sirin xiyol bosh ko'tarishib, janggoh tomonga qaramasdan baqirishadi.
Bo'ri:

Ishonmagin, Quyjonjon,
Yolg'onchining so'ziga.
Tulki:

G'irt yaponcha usulda
Qo'lingni tiq ko'ziga.
Sher:

Qorinbotir to hayot,
Yurting bo'lolmas ozod.
Ayiq:

Quyonglarga ozodlik!
Erkin bo'lsin Bo'rsiqlar!
Sirtlon:

Hamma mnnbar - shoirga,
Yonib bitsin to'siqlar!
Sher:

Ana, eshit, Quyongjon,
Oddiy xalqning qahrini.
Quyongxon:

Sug'urib ol qornidan
Elning xamma jabrini.
Quyongjon (Pufakni oyoqlari orasiga qisadi):
- Vaq-vaqa-a-a! Xr-r... Meni qo'yvo-o-r! Xr-r, xr-r!
- Yalinma, qonxo'r! Endi mendan qutulib bo'psan! Mana senga!
(Barmog'ini qattiq niqtaydi, pufakni yoradi).
Paqildoq ovozdan qo'rqib, hayvonlar har tomonga dumalab ketishadi.
Tulki:

Tinchlikmi, ho' Quyongjon,
Qarayversak maylimi?
Quyongjon:

Ha, turinglar,
Boshlaymiz
G'alabaning saylini.
(Hayvonlar ishonib-ishonmay o'rinlaridan turishadi. Quyongjon latta dumni ushlab, pufak qoldig'ini ko'rsatadi).

Mana, o'sha ochko'zning
Qornin shartta yorvordim.
Bo'ri (Yalanib):

Qani ichak-chavog'i?
Quyongjon:

Shu tuproqqa qorvordim.
Tulki:

Ure-e-y!
Yasha, Quyongjon!
Bo'ri:

Takvandong bo'lsin omon.
Sirtlon:

Meni asrading,
Demak -
Vatanga shoir kerak.
Quyoxon:

Kel, bosayin bag'ringa,
Aylanding sen faxringa.
Hayvonlar Quyonjonni bir-bir qucha boshlaydilar. Sher tabriklashga oshiqqan Ayiqni to'xtatadi.
Sher:
Ha, maymoqvoy, yo'l bo'lsin?
Ayiq:
Tabriklaylik g'ilayni.
Sher:

Bitta chuvrindini-ya?
Bu gapingga o'laymi?
Mana, meni tabrikla,
Laqillatdim Quyonni.
Shunchaki puch va'damga
Yengib berdi dushmani.
Quyonjon hayvonlar bilan ko'rishayotib Sher va Ayiq tomonga ziyraklanib boqadi. Ularning niyati buzilganini sezib,
atrofdagilarga baland tovushda gapiradi.
Quyonjon:

Do'stlar, hozir ortiqcha
Quvonishga o'rin yo'q.
Qorinbotir o'larkan,
Menga qarab urdi do'q.
Tulki:

Nima dedi u ablah?
Bo'ri:

Gapir qilmasdan ilhaq.
Quyonjon:

Qasd olgani kelarmish
Ukasi Qovoqbotir.
Ayiq (Sherga shipshiydi):

Bu gapini eshitib
Bo'pqoldim-ku xavotir.
Sher:

Ha, chamasi hozircha
O'zgaradi rejamiz.
Mayli, o'sha daladan
Vaqtinchaga kechamiz.
Ayiq:

Kim bo'lmayin desa go'sht,
Tezda chetga qochsin, po'sht!
Tabriklashga atayin
Kelmoqdalar xo'jayin.
Sher (Quyonjonga yaqinlashib):

Bo'пти, mitti yurtingga
Erkinlik berdim, ukam.
Shu tomonda tursa bas
Chegaramiz mustahkam.
Qovoqbotir keqqolsa,
Bir o'ylashib ko'ramiz.
Oliy Kengash xo'p desa,
Senga yordam beramiz.
(Yelkasiga qoqib)

Xo'p, hozircha omon bo'l.
Ayiq:

Har doim biz tomon bo'l.
Boshqalar ham xayrlashib keta boshlashadi.
Bo'ri:

Yo'yma meni yomonga,
Ba'zan keptur mehmonga.
Tulki:

O'tsang Sho'ro qishloqqa,
Salom deb qo'y Boboqqa.
Sirtlon:

Eh, Quyjonjon, qaniydi
Sen tomonda yashasam.
Yirtqichlikdan qutulib,
Yangi hayot boshlasam.
Hamma ketib, opa-uka yolg'iz qolishadi.
Quyjonjon:

Qalay bo'ldi, opajon,
Bopladimmi barini?
Quyjonxon:

Ko'rmaysan dsb yurardim
Mo'ylovingdan narini.
Lekin mening yuragim
Tepdi ko'p taka-puka.
Nayrangimiz o'tmasa,
Halok bo'lardik, uka.
Quyjonjon:

Axir o'lsak arziydi
Yurtimizning erki deb.
Bugungi kun shavqiyu
Kelajakning ko'rki deb.
Quyjonxon:

Endi har bir kunimiz
Bir biridan charogon
Quyjonjon:

Yuragimni baribir
Tirnayapti bir armon.
Quyjonxon:

This is not registered version of TotalDocConverter

Qanday armon?
Quyjon:

Eh, opa,
Ko'nglim - sho'rlik otamda.
O'z yurtida qisinib,
Yashab o'tdi motamda.
Quyjonxon:

Senday mardni yaratdi,
Shudir otamning baxti....
Qo'y, ukajon,
Shu tobda
Yig'lashning emas vaqti,
Jar solaylik baralla,
Butun yurtga taralsin!
Quyjon (Qayta ruhlanib):

Boshlansinu rost hayot,
Rostgo'y tarix yaralsin!
Quyjonxon:

Muborak bo'lsin, uka,
Yangicha havo, shodlik.
Quyjon:

Muborak bo'lsin, opa,
Mustaqillik, ozodlik.
Bir-birlarini qattiq quchganlaricha turib qoladilar.

Parda
1990 P№PëP», PÿPsC€PεPμPSC.,.